



IJTIMOY TARMOQLARDA ZARARLI MA'LUMOTLARGA QARSHI KURASHISH MODELLARI, ALGORITMLARI VA USULLARI

Abdullayeva Haitjon Atabekovna

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali magistranti

abdullayevaxayitjon4@gmail.com

Tel:+998991464825

Ibodullayev Abdulla Zokir o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali magistranti

ibodullayevabdulla@gmail.com

Tel:+998999631007

Artikov Nodirbek Axmedjan o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali magistranti

artikovnodir18@gmail.com

Tel:+998999425033

Annotatsiya: *Ushbu maqolada global o'zgarishlarda ijtimoiy tarmoqlar qudratli axborot qurolga aylangan dunyo miqyosida mafkuraviy-g'oyaviy tahdidlarni targ'ibot va tashviqot etishda ijtimoiy tarmoqlar muhim omil vazifasini o'tamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar yordamida yoshlarning qalbi, ongi va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida yoshlar ma'naviyati izdan chiqishiga olib kelmoqda. Shu boisdan ham, turli-tuman g'oyaviy, mafkuraviy va axborot xurujlarining avj olishini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz darkor. Ijtimoiy tarmoqlarda zarali ma'lumotlarga qarshi kurashish hususida so'z yuritildi.*

Kalit so'zlari: *Internet, axborot, kommunikatsiya, global, virtual, ijtimoiy tarmoq, Facebook, Google, mafkura, innovatsion, g'oya, kiberxafsizlik.*

Sir emaski, global o'zgarishlar ta'sir o'tkazmagan biror sohani topish qiyin. Ayniqsa, insonlar o'rtasidagi muloqotning kuchayib ketishiga bu jarayonning qo'shayotgan hissasi haqida yetarlicha dalillar mavjud. Ayni davrda zamonaviy dunyoni axborot texnologiyalarisiz, ya'ni internet tizimining ijtimoiy tarmog'isiz tasavvur etib bo'lmaydi, chunki ular allaqachon hayotimizning bir qismiga aylanib ulgurgan. Bir necha yillar oldin internet haqida, virtual muloqot haqida tasavvurga ega bo'lmagan odamlar hozir muloqotning eng oson va har taraflama qulay yo'liga o'tishdi. Bu muloqotning qulayligi shundaki, u hech qanday masofani tan olmaydi. Shuningdek, joy, muhit va boshqa sub'ektiv jihatlersiz onlayn muloqotni ta'minlaydi. Qiziqligi shundaki, bunday muloqotda nafaqat suhbatlashish, balki, turli ma'lumotlar almashish, har qanday savolga javob topish, nimadir sotish va sotib olish, qiziqarli filmlarni tomosha qilish, turli xorijiy tillarni o'rganish, hattoki muayyan mablag' ishlab topish uchun ham imkoniyatlar mavjud. «O'rgimchak to'ri»ning takomillashuvi esa «ijtimoiy tarmoq» tushunchasining paydo bo'lishi va shakllanishiga zamin yaratdi. Bugungi



kunda mashhur bo'lgan ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifasiga ega bo'lmagan insonni topish qiyin. Ayniqsa, bu holatning yuqori darajasini yoshlar orasida ko'rish mumkin.

Ma'lumotlarga qaraganda, dunyo yoshlari, jumladan mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlod asosiy vaqtining taxminan 50% foizi virtual muloqotga sarflanmoqda. Gap shundaki, ko'pchilik yoshlar o'z hayotlarini ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qila olmaydilar. Virtual muloqotning avj olishi jonli muloqotga bo'lgan ehtiyojning pasayib ketishiga sabab bo'lmoqda. Shuni aytish kerakki, bugungi kunda jamiyatimizda o'zining doimiy ko'rishib turadigan yaqinlari bilan ham ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qiluvchi insonlar ko'pchilikni tashkil etmoqda.

Bunday muloqot esa real voqelikdan ayri holda kechadi va inson o'zining hissiy kechinmalarini tasvirlab bera olmaydi. esa insoniy tuyg'ularning yo'qolib borishiga zamin yaratadi. Yaqin o'rtasida insonlar o'rtasida "uyga keling" deb taklif qilingan bo'lsa, endilikda "telegram kanalim"ga tashrif buyuring, "Facebookdagi sahifam"ga kiring degan takliflardan ajablanmay qo'ydik. Shu nuqtai nazardan qaraganda, shiddatli global o'zgarishlar davrida yoshlar ong-u shuurini internet tizimining ijtimoiy tarmog'i orqali kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'qituvchilar, ma'naviyat targ'ibotchilari, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh bo'lishni, yosh avlodning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirishni talab qiladi. Ma'lumki, dunyoda g'oyaviy hamda informatsion xurujlar, turli mafkuraviy tahdidlar avj olayotgan bugungi kunda yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirish, ularning tafakkurida sog'lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish eng muhim vazifadir.

Bunday murakkab va tahlikali davrda ma'naviy – ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish yoshlarimizni turli mafkuraviyxurujlardan himoya qilish, yoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon – atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, zo'rlik bilan joriy etish oqibatida xalqaro maydondagi ziddiyat va qarama – qarshiliklar kuchayib borayotgan bir vaziyatda o'zimizning kelajak strategiyamizni aniq belgilab olish, g'animlarning g'arazli urinishlari nimaga qaratilganligini har tomonlama anglab olish va keng jamoatchilikka yetkazish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch va osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy g'oya targ'iboti va mafkuraviy jarayonlarning amaliy ishlari va ijobiy natijalarini yoshlarga tushuntira bilish, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi" ekanligi to'g'risidagi qarashlarining mazmun-mohiyatini har bir fuqaroga, xususan, yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirish zarur.

Yangi texnologiyalar, elektron xizmatlar bizning kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Jamiyat axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tobora ko'proq qaram bo'lib borayotganligi bois, ushbu texnologiyalarni himoya qilish va ulardan



foydalanish milliy manfaatlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli, har bir tashkilotga, kiberxavfsizlikni ta'minlash maqsadida, mazkur soha bilan shug'ullanuvchi xodimlar jalb qilinmoqda va xodimlarni kiberxavfsizlikka oid bilimlar bilan muntazam tanishtirib borish uchun qator seminar-treynning mashg'ulotlari tashkil etilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida ham kiberxavfsizlikni fan sifatida o'tilishi buning yaqqol misolidir. Axborotni ishlash, uzatish va to'plashning zamonaviy usullarining rivojlanishi foydalanuvchilar axborotini yo'qolishi, buzilishi va oshkor etilishi bilan bog'liq tahdidlarning ortishiga olib kelmoqda. Shu sababli, kompyuter tizimlari va tarmoqlarida axborot xavfsizligini ta'minlash axborot texnologiyalari rivojining yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshmetov. T. Ijtimoiy tarmoqlardagi yot va zararli g'oyalar ko'rinishlari va uni oldini olishning yangicha mehanizmlari. Toshkent. 2021.
2. Xudoyberdiyev. T. Ijtimoiy tarmoqdagi tuzoqlarning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri. Toshkent. 2018.
3. <https://lex.uz/uz/docs/-5960604m>
4. Ganiyev. K. Kiberhafsizlik asoslari. Toshkent. 2020.